



## O‘ZBEK VA TURKMAN XALQ DOSTONLARI BADIYYATIDAGI MUSHTARAKLIK

**Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

Email: [yulduzxonqosimova@gmail.com](mailto:yulduzxonqosimova@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17903987>

**Annotatsiya.** Xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri-xalq eposlari bilan tanishish nafaqat millatimiz, balki qardosh xalqlarning qadriyat, an‘ana va urf odatlaridan boxabar bo‘lish imkoniyatidir. Ayniqsa, bugungi uzluksiz ta‘limda turkiy xalq eposlarini o‘xshash tomonlarini badiiy tahlil qilish qiyosiy yondashuv asosida amalga oshirishni talab qilmoqda. Ushbu maqolada aynan o‘zbek va turkman xalq dostonlari badiiyatidagi mushtarak belgilar syujet, motiv, obraz va qahramonlar xarakterini qiyoslash to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** epos, motiv, barqaror motiv, safar motivi, tush motivi, g‘ayritabiiy tug‘ilish, sinov motivi, epik qolip.

**Annotation.** Getting acquainted with the largest genre of folk oral creativity- folk epics - provides an opportunity to become familiar not only with the values, traditions, and customs of our nation, but also those of related peoples. Especially today, in the sphere of continuous education, it is necessary to analyze the artistic similarities of Turkic folk epics on the basis of a comparative approach. This article discusses the comparative study of common features in the poetics of Uzbek and Turkmen folk epics, including their plot, motifs, imagery, and the characteristics of their heroes.

**Keywords:** epic, motif, stable motif, travel motif, dream motif, supernatural birth, trial motif, epic pattern.

**Аннотация.** Знакомство с крупнейшим жанром народного устного творчества — народными эпосами — даёт возможность узнать не только ценности, традиции и обычаи нашего народа, но и родственных народов. Особенно сегодня, в системе непрерывного образования, требуется художественный анализ сходных сторон тюркских народных эпосов на основе сопоставительного подхода. В данной статье рассматривается сравнение общих черт в поэтике узбекских и туркменских народных дастанов, таких как сюжет, мотивы, образы и характеры героев.

**Ключевые слова:** эпос, мотив, устойчивый мотив, мотив путешествия, мотив сна, сверхъестественное рождение, мотив испытания, эпическая формула.

**Kirish.** Ma‘naviyat kecha yoki bugun vujudga kelgan hodisa emas, u necha asrlardan buyon xalq eposlari, xalq o‘gzaki ijodining boy namunalari bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Epos — yunoncha “epos” - rivoyat, hikoya, qo‘shiq so‘zidan iborat bolib, badiiy adabiyotda voqea, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma‘nosini anglatadi [1.16].

Turkiy xalq dotonlarining umumiyliigi eposlardagi qahramonlik va erkinlik g‘oyasi xalq ozodligi, yurt himoyasi, adolat va jasorat asosiy mavzu qilib olinishi, qahramonlarning bosqinchi kuchlarga, adolatsizliklarga qarshi mardonavor kurashlarida o‘z ifodasini topadi. O‘zbek va turkman xalq dostonlari badiiyatidagi mushtaraklik syujet, qahramonlar xarakteri, personaj va detal obrazlarning asardagi vazifalari, sinov, safar, tug‘ilish, evrilish, kurash kabi motivlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.



**Adabiyotlar tahlili.** Ko‘plab folklorshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan xalq eposlarini o‘rganishga oid ilmiy ishlar olib borilgan. Turkiy xalq dostonlarining tarixiy ahamiyati va badiiy qiymati V.M. Jirmunskiy, M. Tahmasib, A. Shamil, F. Bayat, S.O‘zelli, G. Snesarov kabi olimlarning tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Sh. Turdimovning “Obraz va talqin” kitobida xalq dostonlarining genezesi, tadrijiy bosqichlari, yetakchi motivlar tadqiqi yoritilgan. O.Ingyongning “Alpomish va Jumo‘ng” dostonlarining qiyosiy tipologiyasi” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida [2.81] o‘zbek va koreys eposining o‘rganilish tarixi, “Alpomish va Jumo‘ng” dostonlari yetakchi motivlarining qiyosiy tahlili, N.Madrahimova “Shirin bilan Shakar” dostoning qiyosiy-tipologik” tahlili dissertatsiyasida [9.79] “Shirin bilan Shakar” dostoning qoraqalpoq va o‘zbek versiyalaridagi syujet o‘xshashliklari, talqinlari va obrazlar tipologiyasi va badiiyati haqida ma’lumotlar uchraydi. Z. Eshanovanning “O‘zbek xalq dostonlarida tog‘ obrazi:genezesi va badiiy talqinlari” [8.69] nomzodlik dissertatsiyasida tog‘ obrazining tadrijiy bosqichlari, genezesi, mifologiya bilan bog‘liq tomonlari mif-ritual-epos jihatidan tarixiy-tadrijiy, qiyosiy-tipologik aspektda yoritib berilgan. N.Yusufjonovanning “Turkiy xalq dostonlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o‘qitish texnologiyasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida [6.58] o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman xalq eposlari badiiyatidagi mishtarakliklar, epik motivlar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ta’lim o‘zbek va turkman tilida olib boriladigan umumta’lim maktlarining adabiyot darsligiga kiritilgan xalq eposlari badiiyatida mushtarakliklar muhokama qilinadi. Xalq dostonlaridagi yetakchi motivlar, ayol obrazlaridagi umumiy jihatlar, detal obrazlarning asardagi vazifalari o‘zaro solishtirildi. Adabiy ta’limda xalq eposlarining o‘qitilishidan maqsadni badiiy tahlilda qiyosiy yondashuv asosida o‘rganildi.

**Tahlilar va natijalar.** Xalq dostonlarida bosh qahramonlardan biri ayol obrazi hisoblanadi. Shubhasiz, ayol obrazining paydo bo‘lishi xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Go‘zal hilqat bo‘lmish ayollar haqida muqaddas Qur’oni Karimda ham alohida “Niso” surasi nozil qilingan bo‘lib, unda meros va ayollarga muomila qilish haqidagi fikrlar ilgari surilgan [7.69]. Ayollar timsoli barcha turkiy xalq dostonlarida yetakchi o‘rin egallaydi. Turkmanlarning “Qo‘rqut ota” dostonida yoriga vafodor, oilaparvar, erning topganlarini isrof etmaydigan, mehmondo‘st ayollar obrazi har bir hikmatlarida uchraydi. “Dovja Goja o‘g‘li Dalli Dumrul “hikoyatida Azroyilga bas kelaman deb katta ketgan kibrli Dalli Dumrul kurashda Azroildan yengiladi va Alloh uni jonini olmaslik uchun o‘rniga biror kimsaning jonini olib kelishni buyuradi. Afsuski, Dalli Dumrulning ota-onasi o‘g‘illairining o‘rniga o‘lishni xohlashmaydi, shunday qiyin vaziyatda qahramonning yori o‘z jonini berishga tayyor ekanini bildiradi. Tangri Dalli Dumrulning xotining vafo va sadoqati evaziga yana yuz yil umr beradi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining o‘zbekcha versiyasida Gajdumbek va Ravshan o‘z yurtiga ketganida,



Rustambek Bibi Hilolni Yovmit shahriga olib ketaman deb taklif qilsa ham Bibi Hilol bunga ko'nmaydi. "Men bir xizmatkor bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka: "Sen o'zing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan minglashib keldi", - deb aytar. Akam va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo'lar, qarindoshlarimning ma'raka-o'ltirishlarida yuzini tuman qilganimdan ko'ra, shu yerda g'arib bo'lib o'lganim yaxshiroq", - deya o'limni afzal ko'radi. Bibi Hilol timsolida ham yoriga vafo, or-nomus kabi fazilatlar mujassam. Shu bilan birga ikki xalq dostonlari mazmunida alplarning yoridan maslahat olishi, ayollarning o'tkir aql-zakovat sohibasi ekanligi ko'rsatgan chora-tadbirlarida o'z ifodasini topgan. "Go'ro'g'li" dostonining turkman versiyasi "Or almashinuv" bo'limida Go'ro'g'li Rayhon Arabning qizi Bibijonni olib qochayotgan mahalda Go'ro'g'li Arabning oti bizga yetib olsa nima qilamiz deb, Bibijondandan maslahat soraydi. Bibijon Go'ro'g'liga qarab:" Ey Go'ro'g'libek, mendan nega maslahat so'raysan? Sen o'zing mard bo'lsang, buni mendan yaxshiroq bilasan. Lekin shunday bo'lsa ham bir narsani aytib qo'yay. Otam uxlagan paytda otboqarlar otga o't solib, parvarish qilishar edi. Uning otiga har safar besh yarim botmon o't solishgan. Bechora ot ko'p o't yeyverib semirib, tanasiga to'lib turgan. Shuning uchun og'irligini ko'tarolmay tezda charchaydi. Bundan tashqari otamning oti qaridir, bizniki esa yosh. Mabodo otam bizga yetib olsa, uni bir-ikki og'iz gap bilan chalg'itib turgin, oti sovib tezda charchab qoladi",-degan dono fikrni bildiradi. Bibijonning aqli raso, haqiqiy xonzodalar naslidan ekanligi Go'ro'g'lidek zakovatli bahodirga maslahat sola olishidan ko'rinish turibdi. "Ravshan" dostonida Zulxumor Ravshanning kelganini bilib, kanizi Oqqizga lagan berib, uning oldiga peshvoz chiqishini aytadi. Ravshan kanizaga qo'lidagi uzukni beradi. Oqqiz uzukni nazari ilmay, yerga uloqtirganida Zulxumor uni xosiyatli uzuk ekanini ustiga yozilgan xatini o'qib bilib qoladi. Zulxumor o'tkir zehni orqali Ravshanni esa zoti ulug' bekdoda ekanini ilg'aydi. Bundan tashqari Shoxsanam, Barchinoy, Qaldirg'ochoyim, Bibi Hilol singari obrazlarda aql-zakovat, fahm-farosat, yorga chin sadoqat, zolim xon otasiga ham mehr ko'rsatish, har qanday sinovli vaziyatda yorini qo'llab-quvvatlash, turkiy xalq ayollariga xos o'xshash chin muhabbat tuyg'ulari tarannum etilgan. Shu bilan birga xalq dostonlarida hasadgo'y kaniz ayol obrazlari ham mavjud. "Shoxsanam va G'arib" dostonida Shoxsanam G'aribni yashirincha bog'da saqlab yurgan paytida xizmatkor qiz G'aribning qo'liga suv quyayotganda uni yoqtirib qoladi va suv quygani evaziga biror sovg'a in'om etishini so'raydi. Ammo G'arib kanizning beodoblighi uchun bir tarsaki tushiradi. Kaniz kaltak yegani tufayli alam ustida G'aribni bog'da ekanligini xonga yetkazadi. Xon esa darrov odamlarini tekshirib kelishga buyuradi. G'arib qiyin vaziyatlarda doim yordam bergan Yasmin kampirning rejasi bilan omon qoladi. Ta'lim tili o'zbek umumta'lim maktablarining 8-sinf adabiyot darsligida "Ravshan" xalq dostonida xuddi shunday ichi qora Oqqiz ismli kaniz obrazi uchraydi. U Ravshanning Zulxumorga bo'lgan muhabbatini ko'rolmay, ikki oshiq-mashuqni yashirincha yashab yurganlarini onasiga aytib



beradi. Onasi esa jahl ustida Qoraxon podshohga bu sirni yetkazadi. Qoraxon Ravshanni bu qilmishi uchun zindonband etganida Ravshanga onalik qilgan oqko'ngil kampir to'rtta kal o'gliga yig'lab, Ravshanjonni tezroq qutqaringlar deb nasihat qiladi. Korib turganimizdek, har ikki xalq dostoniga kiritilgan chaqimchi, yovuz niyatli kanizlar asar voqealarining keskinlashuvi, qahramonlarning sinov va iztiroblarini kuchayishida muhim badiiy vazifani bajaradi. O'quvchilarga ushbu obraz timsoli orqali hasad- insonni yondiruvchi olov ekani, u ayol qalbida paydo bo'lganda, sevgiga rahna solishi muqarrarligini, biroq haqiqiy muhabbat, vafo va sabr kabi fazilatlar yovuzlik ustidan g'alaba qilishini anglatish joizdir. Shuningdek, eposlarga kiritilgan yordamchi, donishmand kampir obrazi bosh qahramonlarning yo'lini topishida, hayot sinovlaridan o'tishida mo'jizaviy tarzda ko'mak berishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy asar syujetini uyushtiruvchi voqealar zanjiri motiv hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov fikricha, motiv-bu bir yoki bir nechta ijodkorning adabiy asarida takrorlanib turuvchi, butun boshli asardagi voqealarni harakatlantiruvchi syujet halqasidir [4.73]. Xalq dostonlarida doimiy takrorlanib keluvchi motivlar an'anaviy epik motivlar hisoblanadi.

Folklorshunos olim J.Eshonqulov o'zining "O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini" nomli tadqiqot ishida xalq eposlarida an'anaviy motivlar asar g'oyaviy mazmunini ochib bera olishiga ko'ra ikki xil usulda kelishini aytadi. Ya'ni shunday motivlar borki, ular butun boshli eposdan uzib olinsa, asar mazmuniga unchalik ham putur yetmaydigan nobarqaror motivlardir. Ikkinchisi esa asardan olib tashlansa yoki o'zgartirilsa, syujetda tub burilish yasay oladigan barqaror motivlardir [8.39]. "Qo'rqut ota" xalq dostonida "Depog'o'zni halok bo'lishi haqida rivoyat" qismida aynan barqaror sinov motivlarini birin-ketin butun xalqni yeb bitirayotgan bir ko'zli maxluq Depo'go'zga qarshi Basat jangga o'tlanish syujetida ko'rishimiz mumkin. Bosh qahramon Basat otasi Orazdan duo olib, o'lgan qarindoshlari ruhini shod qilish yo'lida maxluq yotgan g'orga chiqadi. Maxluqning hamma joyi toshdan qattiq, faqatgina bir ko'zi yumshoq edi. Basat oqillarcha yo'l tutib, uning ko'ziga o'q uzadi. Ammo Depog'o'z osongina yengilmaydigan makkor obraz sifatida tasvirlanadi. Asarning shu yerida Basatning sinovdan o'tish motivi tasvirlanadi. Bosh qahramon Basat go'dakligida sherni emib katta bo'lgani va homiy eranlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli yovuz kuchga qarshi kurashishda qo'y terisiga berkinib oladi. Maxluq Basatni qo'yning terisiga kirib olganini sezadi-yu, uning shoxidan ushlab, chirpirak qilib otib yuboradi. Biroq quruq terining o'zigina uchib ketib, Basat omon qoladi. Keyin Basatga ikkinchi sinov maxluqning uzuk orqali vasavasa qilish voqeasida aks etadi. Xalq og'zaki ijodida uzuk sevgi, taqdir, himoya kabi ramziy ma'nolarga ega detal obraz sanaladi. Aynan "Depog'o'zning halok bo'lishi haqida rivoyat" qismida uzuk magik xususiyat kasb etadi. U maxluq tomonidan Basatni yengish uchun sehrlangan yovuz kuch timsolidir. Basat ushbu uzukni qo'lga taqmay, uloqtirib yuboradi.



Uchinchi sinovda maxluq yana hiyla ishlatib, Basatni xazinaga taklif qiladi. Ammo Basat xazinaga aldanmaydigan, o'z xalqini ozod qilish yo'lida so'nggi nafasigacha kurashni afzal biluvchi elparvar alpdur. Ta'lim tili turkman umumta'lim maktablarining 7-sinf adabiyot darsligida "Shoxsanam va G'arib" dostonidan berilgan parchada G'arib Shoxsanamning visoliga yetishish uchun yetti yil cho'llarda sarson kezadi, bir nafas ham Shoxsanamning hijronida o'rtanishdan to'xtamaydi. Shoxsanam ham muhabbat sinovidan o'tishda ulkan sabr, bardosh bilan G'aribning yo'llariga intizor bo'ladi. Otasi Shoxabbos qizini boshqa yigitga berayotgan mahal G'arib sinovlarda toblangan otashin muhabbati, sadoqati yo'lida Shoxsanamning huzuriga yetib keladi. "Alpomish" dostonining o'zbekcha versiyasida Barchin Alpomish kelishi bilan tegib ketavermayman, Alpomish ham boshqa alplar bilan bir, oldin to'rt shart qo'yaman. Shartlarimda g'olib bo'lgan bahodirga turmishga chiqaman deb ushbu misralarni aytadi.

Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi,  
Botirni ingratar nayza yaras.  
Kelgan bo'lsa qo'ng'irot elning to'rasi,  
Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.  
Boboxon tog'idan poyga qilaman.  
Oti ildam boybachchaga tegaman.  
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,  
Ming qadamdan tanga pulni urganga,  
Kurash qilib to'son alpni yiqqanga,  
Barobar qildim yaxshi-yomonga,  
Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

Alpomish yuqoridagi to'rtta shartda ham qiyinchilik, o'tkir aql-zakovat, sabr-bardosh va, ayniqsa, homiy eranlar, payg'ambarlar duosi bilan g'alabaga ham Barchinoyga ham erishadi. Biz ushbu shart-sinov motivi orqali nafaqat Alpomishning alplik kuchining sinalishini, balki yori Barchinoyning turkiy xalqlarga xos or-nomus, sharm-hayo, qat'iyat, iroda va o'z muhabbatiga bo'lgan sadoqatini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyot darslarida o'quvchilarga xalq dostonlarida qo'llangan sinov motivi hayotda har qanday qiyinchiliklarga dosh bera olish, yovuzlik ustidan ezgulik nom qozonishi uchun sinovlarda toblanish, ruhiy va ma'naviy jihatdan chiniqish darkorligini epik qahramonlarning ko'rsatgan jasoratlari misolida ko'rsatsak, adabiy ta'limdan ko'zlagan maqsadga erisha olamiz.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va turkman xalq dostonlaridagi umumiy jihatlar asardagi har bir obraz, syujet halqalarida mujassam. Adabiyot darslarida o'qituvchi o'zining pedagogik mahorati, yuksak salohiyati orqali ikki xalq dostonlari badiiyatidagi mushtarakliklarni qiyosiy yondashuv asosida ijodiy topshiriqlar, badiiy tahlilda hayotiy dalillar orqali anglatishi yoshlarni badiiy ozuqaga bo'lgan tashnaligini



orttirishi, uzundan uzun eposlarga muhabbat qo'yishlarida turtki bo'lishiga ishonchimiz komil.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2017. -143-b.
2. O.Ingyong. "Alpomish va Jumong" dostonlarining qiyosiy tipologiyasi. Filologiya fanlari doktori. dis.- Toshkent. 2014.
3. Madrahimova N. "Shirin bilan Shakar" dostoning qiyosiy-tipologik tahlili. Fil. fan. nom. dis.. Toshkent.-2008.
4. Z.Eshonova. O'zbek xalq dostonlarida tog' obrazi: genezesi va badiiy talqinlari. Filologiya fanlari falsafa doktori. nom. dis.. Toshkent.-2018.
5. Yusufjonova N. Turkiy xalq dostonlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'qitish texnologiyasi. Ped. fan. nom. diss.. Toshkent, 2023.-5-b.
6. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'no tarjimalari. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimai).- T.: Sharq, 2008.
7. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. 9-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Adabiyot" darsligi. T.: 2019.
8. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. 11-sinf umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun "Adabiyot" darsligi. T.: 2018.
9. Suyunova G., Arazov I., Haydarov S. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf "Adabiyot" darsligi.- T.: Sharq, 2017.
10. Razzoqova K., Sherbekov G. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf "Adabiyot" darsligi. T.: 2017.
11. [http://idum.uz/wp-content/uploads/2020/08/www.idum.uz\\_adabiyot\\_fanidan\\_turkman\\_tilida\\_2020-2021.rar](http://idum.uz/wp-content/uploads/2020/08/www.idum.uz_adabiyot_fanidan_turkman_tilida_2020-2021.rar)
12. Tillayeva R. Adabiy ta'limda o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi. T.: 2023.-28 -b.
13. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>
14. Sobirova, M. (2023). Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. "Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – В. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>
15. Qosimova Y. O'zbek va turkman umumta'lim maktab adabiyot darsliklarida xalq dostonlari o'qitilishining bugungi holati. (maqola) Til va adabiyot.uz. 2025-yil 16-son.- 177-180-b